

**AMIR NASRULLO – QUDRATLI BUXORO AMIRI***Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi**Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi**E-mail: [ruxshona01062005@gmail.com](mailto:ruxshona01062005@gmail.com)**Tel: +998931021725**Ilmiy rahbar: Zoxid Madraximov**NamDU, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1827 – 1860-yillarda Buxoro amirligini boshqargan amir Nasrulloxon shaxsiyati, hukmronlik davrida amirlikning ichki va tashqi siyosati, islohotlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mang'itlar, amir Haydar, Nasrullo, harbiy islohot, qo'shbegi, to'pchiboshi, mortir, sarboz, "Qassob amir", Qo'qon, Mashhad, Hirot, Kenagasxonim.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о личности эмира Насруллы-хана, правившего Бухарским эмиратом с 1827 по 1860 год, а также внутренней и внешней политике и реформах эмирата во время его правления.

**Ключевые слова:** Мангитлар, Амир Хайдар, Насрулла, военная реформа, Кошбеги, Топчибоши, минометчик, солдат, «Амир-мясник», Кокан, Мешхед, Герат, Кенагасханым.

**Abstract:** This article provides information about the personality of Emir Nasrullah Khan, who ruled the Emirate of Bukhara from 1827 to 1860, and the internal and external policies and reforms of the Emirate during his reign.

**Keywords:** Mangitlar, Amir Haydar, Nasrullah, military reform, Koshbegi, Topchiboshi, mortar, soldier, "Butcher Amir", Kokan, Mashhad, Herat, Kenagaskhanim.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti yo'lidagi muhim tarixiy bosqichlardan biri bu Buxoroda hokimiyat tepasiga Mang'itlar sulolasining kelishi bo'ldi. Mang'it sulolasi namoyondalari o'zlarini "xon" deb emas, balki, "amir" deya taxtga chiqishdi. Mang'itlar sulolasi davridagi Buxoro amirlari orasida amir Shohmurod va amir Nasrullo alohida o'ringa, mavqega ega hisoblanadi. Amir Nasrullo o'zining qattiqqo'lligi va berahmligi bilan ham tarix zarvaraqlarida alohida o'rin egallaydi. U o'z siyosati davomida xalq orasida "Qassob amir" taxallusini ham olgan. Balki shu jihatlari bilan ham uning shaxsiyati barchaga qiziq bo'lsa kerak.

Amir Haydar 1826-yilning 6-oktabrida vafot etib, Buxoroning Jo'ybor mavzesidagi Eshoni Imlo qabristoniga, otasi Shohmurod yoniga dafn etilgan. Bir qator mahalliy tarixchilar amir Shohmurod va amir Haydar hukmronligi davri Buxoro

amirligining kuchaygan, gullab-yashnagan davri ekanligini o'z asarlarida qayd etib o'tganlar [2. – B. 263.].

Amir Haydarning Husaynxon, Umarxon, Abdullohxon, Nasrulloxon, Bahodirxon, Zubayrxon va Jahongirxon ismli o'g'illari bo'lib, otasi vafotidan keyin katta o'g'li Husayn taxtga o'tirgan. U ona tomondan Sayyid Jo'ybori xo'jalarga avlod edi. Husayn otasi hukmdorligi davrida Karmana va Samarqandning hokimi bo'lgan [2. – B. 263.]. Lekin u ikki oy o'tar-o'tmas vafot etdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, uni qo'shbegi Husayn zaharlab o'ldirgan ekan [1. – B. 86.].

Amir Husayndan keyin taxtga ukasi Umarxon o'tiradi. Akasining hukmronligi davrida u Karmananing hokimi bo'lgan. Mirzo Olim Maxdum hojining yozishicha, amir Umarxon davlat ishlariga e'tiborsizlik bilan qaragan va mayxo'rlikka ruju qo'ygan. Bundan foydalangan kichik ukasi Bahodirxon Nasafdan yo'lga chiqib, Samarqandda katta qo'shin to'plab, Buxoroni qamal qilgan. Ammo biron-bir natijaga erisha olmasdan, ikki kundan keyin Buxorodan chiqib, Hirotga borgan. U yerdan Farg'onaga qaytib kelgan va shu yerda vabo kasalidan vafot etgan. Jasaki bobosi Doniyolbekning yoniga dafn etilgan [2. – B. 263.].

Nasrulloxon Buxoroga askar tortib kelganida, amir Umarxon to'plagan qo'shin parokandalikka uchrab, tarqalib ketadi. Ellik kunlik qamaldan keyin shahar egallanib, amir Umarga xayrixoh bo'lgan 50 kishi qatl qilinadi. Umarning o'zi esa yashirinishga ulguradi. Nasrullo hokimiyatni egallagach, unga omonlik berilib, Xurosonga yuboriladi. Sobiq amir Hirot, Mashhad, Balxda yashaydi, so'ngra Qo'qonga kelib, Qo'qon xoni Muhammad Alixon panohida bo'ladi. Qo'qon xoni o'z singlisini Umarxonga nikohlab beradi.

Herman Vamberi ma'lumotlariga ko'ra, amir Umar oradan ko'p o'tmay Qo'qonda vabo kasalligi tufayli vafot etadi va jasaki Buxoroga keltirilib dafn etiladi. Biroq ba'zi tarixchilar (masalan, tarixchi Mirzo Abdulazim Somiy) Umarxon o'z akasi amir Nasrullo tomonidan o'ldirilgan, degan fikrni ham bayon etgan [3. – B. 154-155.].

Tarixchi Mirzo Shams Buxoriy XIX asrning 20-yillarida Buxoroda yuz bergan siyosiy voqealarning bevosita ishtirokchisi, hokimiyat uchun kurashda amir Haydarning 3 ta o'g'li (Husayn, Umar, Nasrullo)ga yordam bergan va uch hukmdorning ham xizmatida ozmi-ko'pmi muddat bo'lgan. U o'zining “Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni” asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, – amir Nasrulloning Buxoro taxtini egallash va amir Umarxonni hokimiyatdan ag'darib tashlash jarayonida 7-8 ming kishi halok bo'lgan. Nasrullo hukmronligining dastlabki oylarida har kuni 50-100 kishini qatl etib turgan [3. – B. 153-154.].

Amir Nasrulloxon taxt uchun kurashda ayrim amaldorlar, harbiylardan unumli foydalangan, buning uchun mablag'ni ham ayamagan. 1826-yilning 7-fevralidan boshlab, Buxoro shahri Nasrulloxon tomonidan qamal qilinib, u 44 kun davom etadi. Shaharda ocharchilik. Qimmatchilik boshlanib, bir funt g'o'shtning narxi 4-7 tangaga

chiqqan. Ichkarida o'lib qolganlar tashqariga chiqarilib, o'rniga g'alla, un olib kiritishgan. Shahar himoyachilari nomidan Hakim qo'shbegi va Ayoq to'pchiboshi Nasrulloxonga maktub yozib, shaharni topshirishga va'da beradi. Ular aholiga tegmaslikni talab qiladilar. Kafolat sifatida Ayoq to'pchiboshi 100 botmonlik to'pni portlatib, bo'laklab tashlashni va'da qiladi, buni bajaradi ham. Nasrullo 1826-yil 22-martda shaharni egallaydi va Umarxon tarafdorlarini qattiq jazolaydi. Shuningdek, taxtni egallab olgan Nasrulloxon o'ziga yordam berganlardan asta-sekin qutulishga harakat qiladi. Xususan, 1837-yilda Hakim qo'shbegi Qarshiga yuboriladi, keyin Nurotaga jo'natiladi va u yerdan chaqirib olinib zindonga tashlanadi. Undan keyin Ayoq to'pchiboshi (u Nasrulloxonni otasi amir Haydar tomonidan ozod etilgan qullardan edi) ni Samarqanddan Buxoroga chaqirtiradi va u ham zindonga tashlanadi. 1840-yilda ikkalasi ham qatl etiladi. Nasrulloxonning ukalari Zubayr va Jahongir to'ralarning onalari Jo'yboriy xo'jalaridan edi. Ular Chorjo'y tomonga jo'natiladi [4. – B. 179-180.].

Mamlakat ichki ahvolini butunlay o'z nazorati ostiga olib, o'zining ichki dushmanlarini bartaraf etib bo'lgandan so'ng, 1837-yilda Nasrulloxon mamlakatda harbiy islohotlar o'tkazgan va qo'shinning jangovorlik holatini yaxshilashga erishgan. Amirlikda har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bo'limlari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil etilgan. Shu davrda mamlakatdagi muntazam piyoda qo'shginning soni 40 mingdan oshirilgan. Amir Nasrulloxon mang'it amirlari ichida birinchi bor piyoda sarbozlar tarkibida to'pchilardan iborat doimiy harbiy bo'linmaga asos solgan. Uning hukmronligining so'nggi yillarida to'p o'qlari uchun zarur bo'lgan poroxlar ham amirlikning o'zida ishlab chiqarila boshlangan.

Nasrulloxon o'zbek xonliklarini Buxoro atrofida yagona davlat sifatida birlashtirishga uringan. Shuning uchun ham Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni 1840 – 1842-yillarda Buxoro amirligiga qaytarish maqsadida harbiy yurishlarni amalga oshirgan. 1840-yilda Qo'qon bilan Buxoro o'rtasidagi urush Muhammad Alixonning mag'lubiyati bilan tugagan. Qo'qon xoni o'zini Buxoro amiriga tobe deb tan olishga, Xo'jand shahrini Buxoroga topshirishga majbur bo'lgan. Nasrulloxon Qo'qon xonligiga qarshi yurish boshlaganda o'zi bilan noib Abdusamad Tabriziyni olib borgan. Erondan kelgan bu odam o'zining qat'iyatli va zukkoligi bilan amirning nazariga tushgan edi. U asirlardan ingliz tartib-qoidasi asosida muntazam guruh tuzgan va ularni to'p otishga tayyorlagan edi. Noib Abdusamad Tabriziyning 300 kishilik sarbozlari, o'zi tayyorlagan to'p zambaraklari shu yurishda qatnashgan. 1840-yilda amir Nasrulloxon birinchi g'alabaga erishgan. 1841-yilda yangi to'plar yasalgan. Sarbozlar soni 1000 nafarga, to'plar soni 11 taga yetkazilgan, 2 ta mortir ham bo'lgan [2. – B. 266.].

Amir Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni egallab olishi bilan ham cheklanmay, Farg'ona ulamolarining talabi bilan Qo'qonga ham yurish qilinib, uning

hududi 1842-yilda egallangan. 1842-yili Qo'qon xonligida xon zulmiga qarshi qo'zg'alon ko'tarilgach, bundan xabar topgan amir Nasrullo Qo'qonga yana lashkar tortib borgan. Muhammad Alixon va uning yaqin qarindoshlari qatl etiladi. Amir Nasrulloxon Qo'qon xonligini Buxoro amirligiga qo'shib olganligini e'lon qilib, u yerda o'z noiblarini va shaharlariga o'ziga sodiq beklarni tayinlab qaytib ketadi. Ammo ko'p o'tmay, 1842-yilning yozida yana katta qo'zg'alon ko'tariladi va Buxorodan tayinlangan hokim va beklarni hokimiyatdan ag'darib tashlashadi. 1843-yili Amir Nasrulloxon o'z mavqeini tiklash uchun Qo'qonga yana qo'shin tortadi. Shaharni 40 kun davomida qamalda ushlab turadi. Ammo huddi shu fursatda Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro hududlariga hujum qilganligi sababli amir yana qaytib ketishga majbur bo'ladi. Buxoro – Qo'qon o'rtasidagi urushlarda Nasrulloxon qo'shinida 30 ming piyoda jang qilgan, Qo'qon xonligida esa 15 ming navkar qatnashgan. Ushbu yurish Nasrulloxon uchun yaxshi oqibatlarga olib kelmadi. Qo'qon xoni Muhammad Alixonning qatl etilishi, buning ustiga xonning onasi bo'lmish mashhur shoira Nodirabegimning o'ldirilishi amir Nasrulloga nisbatan xalq orasida yomon munosabatning paydo bo'lishiga olib keldi. Bundan tashqari, Ibrohim parvonachining Qo'qonga noib qilib qoldirilishi ham o'zini oqlamadi. Noib Ibrohim soliqlarni oshirib yubordi, xalqqa zulm qilib, noroziliklarni kuchayib ketishiga sababchi bo'ldi. Buning oqibatida tez orada Qo'qon xonligi Buxoro amirligi tasarrufidan chiqib ketdi. Ma'lumotlarga qaraganda, Nasrulloxonning harbiy vaziri lavozimida bo'lgan Abdusamad noib unga: "Endi Qo'qon zabt etildi, Farg'ona katta mamlakatdir. Hozirda Rossiyaning kelish xavfi bor. Agar Madalixonni ont ichirib, tavba qildirib, Qo'qonga qo'yib yuborib, Buxoroga tobe qilib qo'ysak, bizlarga kelgan dushmanlarga qarshi qalqon bo'lur edi", degan fikri amirga ma'qul kelmay, uning og'ziga kavush bilan urdirgan [5. – B. 13-14.]. Vazir kuchlarni birlashtirib, mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashni taklif etganda, amir uzoqni ko'ra olmay kaltabinlik qilgan.

Nasrulloxonning qat'iy harakati bilan Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi tortishuv maydoniga aylangan Marv viloyati ham 1843-yilda Buxoroga bo'ysundirildi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamay kelayotgan Shahrisabz kenagaslari bilan 20 yil davomida bo'lib o'tgan 32 yurishdan so'ng, 1856-yilda u uzil-kesil bo'ysundirilib, sulh ramzi sifatida hakim Iskandarbekning singlisi Kenegaxonim amir Nasrulloga nikohlandi.

Bu davrda Xiva xonlari Olloqulixon, Rahimqulixon, Muhammad Aminxon bilan o'zaro urushlar bo'lib turdi. Jumladan, Olloqulixon davrida xivaliklar G'ijduvongacha bo'lgan yerlarga talonchilik yurishlarini uyushtirdilar. Buxoroning Romitan, Vardonze, Zandana, Xayrabod va Qoqishtuvon mavzolari aholisi katta talofat ko'rib, chorva mollaridan ajralib qolgan. Romitan bozoridan 300 kishi asir qilib olib ketildi. Xivaliklar tomonidan faqatgina 1842 – 1845-yillarda Buxoro yerlariga 7 marta ketma-

ket yurish uyushtirilgan. Lashkarlar bir kunda Qorako'lga tegishli bo'lgan 22 ta qal'alaga bosqinchilik qilganlar. O'z navbatida Buxoro lashkarlari ham, Xiva xonligining Darg'onota, Xonqa, Fitnak va Hazorasp kabi mavzellariga hujumlar uyushtirib turgan.

Amir Nasrullo hukmronligi davriga kelib Turkiston mintaqasida Rossiya – Angliya manfaatlari o'zaro to'qnashdi. 1831 – 1833-yillarda ingliz sayyohi Aleksandr Byorns Buxoroda bo'lgan va Angliyaga kerakli ma'lumotlarni to'plagan. 1841 – 1842-yillarda O'rta Osiyoga Butenov boshchiligidagi Rossiya imperiyasi missiyasi kelgan. Bu missiyaning asosiy vazifasi Angliyaning O'rta Osiyoga suqilib kirishga intilayotganiga qarshi qaratilgan edi. Missiyaning yana bir maqsadi Buxoro amirligida Rossiyaning iqtisodiy-siyosiy ta'sirini mustahkamlashdan iborat ham edi. Ammo Butenov missiyaning Buxoro amiri bilan savdo va diplomatik shartnoma tuzish yuzasidan olib borgan muzokaralari ijobiy natija bermagan.

Afg'onistonni o'z mustamlakasiga aylantirib olishga urinayotgan inglizlar bir necha bor o'z elchilarini Buxoroga jo'natib, amirdan Shahrisabzni o'z hukmdoriga qaytarishni va Karki qal'asini afg'onlar boshqaruviga topshirishni talab qilishgan. Afg'on elchilarini izidan kelgan o'n kishilik ingliz elchilari guruhi esa Afg'oniston bilan Buxoro o'rtasida tinchlik o'rnatib berish evaziga Xiva xonligi va Buxoro amirligi chegaralaridagi Qorako'l va Chorjoy qal'alarini afg'on amiri Do'stmuhammadxonga berishni talab qildi. Bu paytga kelib Do'stmuhammadxon mayda xonliklarni hamda Qandahor va Hirotni o'z davlatiga qo'shib olgan va Afg'onistonning katta qismini o'z boshqaruviga kiritib olgan edi. Yuqoridagi talablar bilan inglizlar O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi turadigan Do'stmuhammadxon boshchiligidagi hukumatlarni tashkil etmoqchi bo'lgan. Biroq bunday keskin va qat'iy talab qo'yilishi Nasrulloxonni tashvishga solib qo'ygan. Chunki, Rossiyaning Qo'qon xonligi chegaralariga yaqinlashib kelayotganligi bir tomondan, Buxoroning tashqi siyosatda Rossiyaga nisbatan ehtiyotkorligi va xavotirini oshiradi, ikkinchi tomondan, vaziyatni murakkablashtiradi. Uzoq ikkilanishlardan keyin amir qat'iy qarorga keldi va rad javobini berdi [6. – B. 43.].

Nasrulloxon hukmronligi davrida inglizlar Afg'onistonga hujum qilib, Kobulni bosib olgan, uning amiri Do'stmuhammadxon Kobulni tashlab Balxga kelgan edi. Balxga kelgan amir Do'stmuhammadxon amir Nasrulloxon bilan uchrashish uchun kelib, Buxoro va Shahrisabzda bo'ladi va ko'p turmay yurtiga qaytib ketadi. Nasrulloxon amir Do'stmuhammadxonni yaxshi qabul qilmagan va hurmatini joyiga qo'ymagan edi. Ingliz elchilarining Shahrisabzni yana vallomalar ixtiyoriga qaytarish to'g'risidagi talabi ham shu voqealar bilan bog'liq edi. Chunki Nasrulloxon Shahrisabzni bo'ysundirib, hukmdorlikni Iskandar vallomadan olib, uning o'rniga mang'itlardan hokim tayinlagan. Iskandarni esa hokim lavozimi bilan Qorako'lga badarg'a qilgan edi.

Bu davrda ingliz harbiylaridan polkovnik Stoddart va kapitan Kanolli elchi sifatida Nasrulloxon huzuriga keladi. Ammo amir ulardan shubxalanib, qamab qo'yadi. Ingliz hukumati ularni rossiyalik amaldor Butakov orqali ozod qildirishga harakat qiladi, ammo amir ko'nmagan. Keyinroq ikkovini ham qatl qildiradi. Aslida ingliz harbiylari ayg'oqchilik, josuslik maqsadida kelgan edilar. Keyinchalik rus bosqini davrida, Buxoro-Angliya muzokaralari chog'ida bu voqea amirning elchilariga eslatiladi [2. – B. 269.].

Amir Nasrulloxon umrining oxirlarida ancha xastalanib qolgan edi. O'limidan oldin Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Samarqand va Miyonqol viloyatlarida bo'lib, keyin Buxoroga qaytadi. Ba'zi manbalarga ko'ra, amir Nasrulloning o'limiga quloq og'rig'i sabab bo'lgan, deb ko'rsatiladi. Buxoro jadidlarining mashhur namoyondalari Sadridin Ayniy va Fitrat tomonidan XX asrning 20 – 30-yillarida yozilgan ma'lumotlariga ko'ra, amirning o'limiga “Kenagasxonim” sababchi bo'lgan. U akasining g'arazli niyatini amalga oshirish uchun uxlab yotgan eri amir Nasrulloxonning qulog'iga simob quyib yuboradi. Amir Nasrulloxon 1860-yil 21-sentabrda vafot etadi va Buxoroga dafn etiladi [7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amir Nasrullo juda ham qattiqqo'llik va shavqatsizlik bilan siyosat olib borgan hukmdor hisoblanadi. Ko'p olimlar, tadqiqotchilar tomonidan amir Nasrullo shaxsiyati bir tomonlama o'rganilgan va qora bo'yoqlar bilan tasvirlangan. Tarixdan ma'lumki, taxtga kelayotgan hukmdor dastavval o'ziga qarshi kuchlarni yo'q qilgan, qonlar to'kkan. Zeroki, amir Nasrulloxon ham shular kabidir. Taxtga o'tirganidan keyingi siyosati va Qo'qon xoni Muhammad Alixon va uning oila a'zolari, shuningdek, onasi mashhur shoira Nodirabegimni qatl etishi borasidagi ishlari tufayli ham u xalq orasida “Qassob amir”, “dahshatli va qonxo'r hukmdor” nomlarini olishga ham sabab bo'lgan. Lekin bu bilan Nasrulloxon shaxsiyatini bir tomonlama o'rgana olmaymiz. Tarozining ikkita pallasi bo'lgani kabi, amir Nasrulloxonni ham ijobiy taraflari bor. U avvalo Buxoroda qat'iy markazlashtirish siyosatini olib borgan. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan bir qancha beklklarni o'ziga bo'ysundirgan. Separatistik qarashlarga barham bergan. O'z siyosatida butun O'rta Osiyoni yagona davlat ostiga birlashtirishga intildi. Rejalari to'liq amalga oshmagan bo'lsa ham, qisqa muddat davomida butun mintaqani yagona davlat sifatida boshqardi.

Bugungi kunda ajdodlarimizga baxo berayotganimizda, shaxsiyati va faoliyatiga bir tomonlama qarab, asossiz ayb qo'ymasdan, davr va vaziyatdan kelib chiqqan holda tahlil qilib, xolis baho berishimiz lozimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shamsuddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. II qism. –T.: Sharq, 2010.
2. To'rayev H., Mirzaqulov B. O'zbekiston tarixi. X jild. –T.: O'zbekiston, 2023.

3. Zamonov A. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari.  
– T.: Bayoz, 2020.
4. Mirzo olim Mahdumi hoji. Tarixi Turkiston. –Toshkent, 2010.
5. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona. – T.: Ma'naviyat, 2005.
6. Sodiqov M. Buxoro va Afg'oniston yaqin o'tmishda. – Toshkent, 2008, 1-son.
7. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amir\\_Nasrulloh](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amir_Nasrulloh)